

AHOLINING DAROMADLARI VA JAMG‘ARMALARINING TAQSIMLANISHINI MONITORING QILISH

Eshimbekov Davlatbek Baxodir o‘g‘li

«Tashkent International University of Education» (TIUE)

MRA-24-01 guruh magistranti

O‘zbekistonda aholi daromadlari va jamg‘armalarining taqsimlanishini monitoring qilish masalasi bugungi kunda mamlakat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida aholi daromadlarini oshirish, ularning manbalarini kengaytirish va jamg‘armalarni samarali boshqarish iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlovchi asosiy omillardan biridir. Daromadlarning adolatli taqsimlanishi va jamg‘armalar hajmining ortishi ijtimoiy tenglik va barqaror o‘shish uchun zarurdir.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda aholining umumiy daromadlari 896,3 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bu 2023-yilga nisbatan 18,5 foizga o‘sgan. Real o‘shish sur‘ati esa 5,9 foizni tashkil etgan. 2023-yilda jon boshiga to‘g‘ri kelgan o‘rtacha yillik daromad 20 million so‘m atrofida bo‘lgan. 2025-yilning birinchi choragida esa bu raqam 222,4 trillion so‘mga yetib, jon boshiga 5,9 million so‘mdan ortiq daromad to‘g‘ri kelgan. Ushbu o‘shish nominal jihatdan ijobiy bo‘lsa-da, inflyatsiya bosimi tufayli real daromadning o‘shish sur‘atlari pastligicha qolmoqda. Hududlar kesimida daromadlar o‘rtasida katta tafovut mavjud.

Masalan, 2025-yilning birinchi choragida Toshkent shahrida jon boshiga to‘g‘ri kelgan daromad 15,86 million so‘mni, eng past daromad esa Namangan viloyatida 3,97 million so‘mni tashkil etgan. 2025-yilning birinchi yarmida esa Toshkent shahrida bu ko‘rsatkich 35,08 million so‘mga, Qoraqalpog‘istonda esa 9,2 million so‘mga teng bo‘lgan. Demak, viloyatlar o‘rtasidagi farq 3,5 barobargacha yetgan. Bu esa iqtisodiy imkoniyatlarning notekis taqsimlanganini, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi tafovutni ifodalaydi. Aholi daromadlarining asosiy manbalari mehnat faoliyati, o‘zini o‘zi band qilish, mol-mulkdan daromad olish hamda transfertlardan iborat. 2025-yilning birinchi yarmida mehnat faoliyatidan olingan daromadlarning ulushi 60,6 foizni tashkil etgan. Ulardan 28,2 foizi ish haqi, 32,4 foizi o‘zini o‘zi band qilish faoliyatidan tushgan daromadlar hisobiga to‘g‘ri kelgan. Mol-mulkdan daromadlar 3,4 foiz, transfertlar esa ayrim viloyatlarda 38 foizgacha yetgan. Bu holat aholining xorijdagi mehnat faoliyatiga bog‘liqligini va ichki iqtisodiy faoliyatning diversifikatsiyalanmaganini ko‘rsatadi.

Markaziy bank ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda mehnat migrantlari tomonidan yuborilgan pul o‘tkazmalari 10,6 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Ushbu

mablag‘lar ko‘plab oilalar uchun asosiy daromad manbai bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, bu holat tashqi iqtisodiy omillarga bog‘liqlikni kuchaytiradi. Jamg‘armalar masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, 2024-yil oxirida aholining 40 foizga yaqini hech qanday jamg‘armaga ega emasligi aniqlangan, 2025-yilda esa bu ko‘rsatkich 34 foiz atrofida saqlanib qolgan. Aholining atigi 20 foizga yaqini bank omonatlaridan foydalanmoqda, qolganlari esa jamg‘armalarini naqd shaklda uyda saqlaydi. Bu holat bank tizimiga bo‘lgan ishonchning pastligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, 2019–2023-yillar oralig‘ida aholining umumiy jamg‘armalari hajmi 45,2 trillion so‘mdan 100,4 trillion so‘mgacha oshgan. Bu ijobiy dinamikaning ko‘rsatsa-da, jamg‘arma imkoniyatlari barcha ijtimoiy qatlamlar uchun teng emas. Yuqori daromadli qatlamlar va iqtisodiy jihatdan faol hududlarda jamg‘armalar ko‘p, past daromadli aholida esa bu imkoniyatlar cheklangan. Aholining moliyaviy savodxonligi ham past darajada. Markaziy bank huzurida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, aholining 50 foizdan ortig‘i o‘z daromad va xarajatlarini muntazam nazorat qilib bormaydi, 60 foizdan ortig‘i esa favqulodda holatlarda uch oylik xarajatlarini qoplash uchun yetarli mablag‘ga ega emas. Shu sababli moliyaviy rejalashtirish madaniyatini shakllantirish davlat siyosatining muhim vazifasidir. 2024-yildan boshlab Markaziy bank tomonidan “raqamli omonatlar” va “jamg‘arma sertifikatlar” tizimi joriy etilib, bu fuqarolarga qisqa muddatli va xavfsiz tarzda jamg‘arma qilish imkonini bermoqda. Shuningdek, “Moliyaviy inklyuziya strategiyasi” doirasida bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Davlat tomonidan olib borilayotgan “Har bir oila – tadbirkor” dasturi, imtiyozli kreditlar va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash choralari aholi daromadlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, rasmiy bandlik darajasini oshirish, norasmiy mehnat sektorini qisqartirish, ayollar va yoshlar bandligini rag‘batlantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Mehnat vazirligining 2025-yil boshidagi ma’lumotiga ko‘ra, mamlakatda 1,6 million kishi norasmiy sektorda ishlagan. Bu ularning daromadlari barqaror emasligini, ijtimoiy himoyadan chetda qolayotganini bildiradi. Shu sababli rasmiy bandlikni kengaytirish bo‘yicha islohotlar davom ettirilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, daromadlarning adolatli taqsimlanishini ta’minlash va jamg‘arma madaniyatini shakllantirish uchun uzoq muddatli siyosiy strategiya zarur.

Masalan, Janubiy Koreya va Singapurda fuqarolar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan maqsadli jamg‘arma hisoblari orqali uy-joy sotib olish, ta’lim olish yoki pensiya uchun mablag‘ jamg‘aradi. O‘zbekiston sharoitida ham yoshlar va oilalar uchun ta’lim, uy-joy yoki startap jamg‘armalari tizimini joriy etish ijobiy natijalar berishi mumkin. Kelajakda aholi daromadlari va jamg‘armalari bo‘yicha barqaror o‘sishni ta’minlash uchun bir nechta muhim yo‘nalishlar muhim: rasmiy bandlikni kengaytirish, iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytirish, moliyaviy savodxonlikni

oshirish, bank tizimiga ishonchni mustahkamlash va soliq siyosatini ijtimoiy yo‘naltirilgan shaklda yuritish. Daromad solig‘ining progressiv tizimini joriy etish, past daromadli qatlamlar uchun imtiyozlar yaratish, investitsiyalarni hududlar o‘rtasida muvozanatli taqsimlash orqali iqtisodiy tenglikni kuchaytirish lozim.

Bundan tashqari, aholining daromadlarini oshirishda ta‘lim va kasb-hunar tizimining zamonaviy talablarga moslashtirilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda mehnat bozorida yuqori malakali mutaxassislariga talab ortib borayotgan bir paytda, ko‘plab yoshlar hali ham past malakali, kam haq to‘lanadigan sohalarida ishlamoqda. Shu sababli, ta‘lim tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga yo‘naltirish, kasbiy tayyorgarlik markazlarini kengaytirish va yoshlarni amaliy ko‘nikmalar bilan ta‘minlash daromadlarning barqaror o‘shishiga xizmat qiladi. Mamlakatda 2025-yilga kelib 50 mingdan ortiq yoshlar “Yoshlar daftari” doirasida ish bilan ta‘minlangan bo‘lsa-da, bu raqam mehnat bozoridagi umumiy ehtiyojni qoplash uchun yetarli emas. Shu bois, bandlik siyosatini innovatsion va texnologik yo‘nalishlarda kuchaytirish, ayniqsa, IT, raqamli xizmatlar va yashil iqtisodiyot sohalarini rivojlantirish zarur. Aholining jamg‘arma imkoniyatlarini kengaytirish uchun moliyaviy institutlar faoliyatini diversifikatsiyalash, sug‘urta, investitsiya va pensiya fondlari tizimini yanada rivojlantirish talab etiladi.

Xususan, uzoq muddatli investitsion jamg‘arma hisoblari joriy etilsa, fuqarolar o‘z mablag‘larini nafaqat saqlab, balki iqtisodiy aylanmaga kiritish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa ichki kapital bozorini kengaytiradi, iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini tezlashtiradi. Shu bilan birga, mikromoliyaviy tashkilotlar tarmog‘ini kengaytirish, ularni aholining past daromadli qatlamlariga yanada yaqinlashtirish ham muhim. Aholining moliyaviy inklyuziyasini oshirishda raqamli texnologiyalar asosiy rol o‘ynamoqda. Hozirda mamlakatda 25 milliondan ortiq plastik kartalar muomalada bo‘lib, aholining 80 foizdan ortig‘i elektron to‘lov tizimlaridan foydalanadi. Ammo bu tizimlar asosan xaridlar va to‘lovlar bilan cheklangan, jamg‘arma va investitsiya yo‘nalishida esa faoliyat sust. Shu sababli, bank tizimi va fintech kompaniyalar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, aholi uchun qulay raqamli omonat platformalarini yaratish orqali jamg‘armalarni jalb qilish samaradorligini oshirish mumkin.

Davlat siyosati doirasida daromadlarning ijtimoiy teng taqsimlanishiga qaratilgan chora-tadbirlar ham kuchaytirilmoqda. Oxirgi yillarda ijtimoiy yordam tizimi qayta ko‘rib chiqildi, ehtiyojmand oilalar uchun manzilli yordam mexanizmlari joriy etildi. 2024-yilda 1,7 milliondan ortiq oila ijtimoiy nafaqa yoki moddiy yordam olgan. Shu bilan birga, ijtimoiy transferlar aholining iste‘mol imkoniyatlarini qisqa muddatda oshirgan bo‘lsa-da, uzoq muddatli barqaror o‘shish uchun ularni mehnatga rag‘batlantiruvchi shaklda qayta yo‘naltirish zarur. Aholining real daromadlari va jamg‘armalarini oshirishda soliq siyosati ham muhim rol o‘ynaydi. 2019-yilda joriy

etilgan soddalashtirilgan soliq tizimi kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlik uchun ijobiy natijalar berdi. Biroq, hozirgi bosqichda daromad solig‘ining progressiv tizimini joriy etish, ya’ni yuqori daromad oluvchilarga nisbatan yuqoriroq soliq stavkalarini belgilash orqali ijtimoiy adolatni mustahkamlash maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, kichik biznes va past daromadli qatlamlar uchun imtiyozlarni kengaytirish iqtisodiy faollikni oshiradi.

O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining kelgusidagi asosiy maqsadi aholi farovonligini barqaror oshirish va o‘rta sinfni mustahkamlashdir. Chunki iqtisodiyotda o‘rta sinfning ulushi qanchalik yuqori bo‘lsa, jamiyatdagi iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolat shunchalik mustahkam bo‘ladi. Shu bois, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalari aynan o‘rta daromadli qatlamni kengaytirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Yana bir muhim yo‘nalish bu – aholi jamg‘armalarini ishlab chiqarish va infratuzilma loyihalariga jalb etishdir. Hozirda O‘zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalar hajmining katta qismi davlat mablag‘lari va xorijiy qarz hisobiga moliyalashtiriladi. Aholi jamg‘armalarini kapital bozorlariga jalb qilish, obligatsiyalar va investitsion fondlar orqali ichki manbalarni faollashtirish orqali iqtisodiy o‘shishni ichki resurslar bilan ta’minlash mumkin. Umuman olganda, O‘zbekistonda aholi daromadlari va jamg‘armalarining taqsimlanishini monitoring qilish tizimi iqtisodiy siyosatni baholashning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Bu tizim nafaqat mavjud holatni aniqlash, balki ijtimoiy siyosatning samaradorligini oshirish, resurslarni to‘g‘ri yo‘naltirish va iqtisodiy o‘shishning barqaror asoslarini yaratishga xizmat qiladi. Daromad va jamg‘arma monitoringini muntazam olib borish, uni hududlar, ijtimoiy guruhlar va kasb toifalari kesimida tahlil qilish orqali davlat iqtisodiy siyosatini aniq faktlarga asoslangan holda shakllantira oladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning yangi iqtisodiy rivojlanish bosqichida aholi daromadlari va jamg‘armalari bo‘yicha islohotlar davom ettirilishi zarur. Raqamli iqtisodiyot, moliyaviy savodxonlik, ijtimoiy adolat va iqtisodiy diversifikatsiya yo‘nalishida amalga oshiriladigan aniq chora-tadbirlar mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi. Daromadlarning adolatli taqsimlanishi, jamg‘arma madaniyatining shakllanishi va moliyaviy tizimga bo‘lgan ishonchning ortishi O‘zbekistonning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun eng muhim shartlardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, I. A. (2016). O‘zbekiston XXI asr bosqasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent: O‘zbekiston.
2. Tashkent State University of Economics (TSUE). (2024). Aholi daromadlari va moliyaviy inklyuziya bo‘yicha yillik tahliliy hisobot. Toshkent: TSUE Nashriyoti.

3. Kuznetsov, N. V. (2022). Dohody naseleniya i ekonomicheskoe neravenstvo: sravnitelny analiz stran SNG. Moskva: Ekonomika.
4. Stiglitz, J. E. (2019). The Price of Inequality: How Today's Divided Society Endangers Our Future. New York: W.W. Norton & Company.
5. Piketty, T. (2020). Capital and Ideology. Cambridge, MA: Harvard University Press.